

---

## Xotin-qizlar faollari faoliyatini yanada rivojlantirish bo'yicha ochiq muloqot o'tkazildi

Xotin-qizlar faollari tomonidan oilalar va xotin-qizlar o'rtasida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni olib borish, ommaviy sport tadbirlarini o'tkazish, jamoatchilik tuzilmalari ishini samarali tashkil etish bo'yicha Farg'ona shahar hokimligida masalaga dahldor mas'ullar ishtirokida ochiq muloqot o'tkazildi. Unda Farg'ona shahar hokimi Vosiljon Nazarov, sektorlar rahbarlari, Respublika Oila va xotin-qizlar qo'mitasi boshqarma boshlig'i Dilshoda Mirzajonovalar ishtirok etishdi.

Yig'ilishni shahar hokimi V.Nazarov ochib, kun tartibidagi masala yuzasidan yig'ilganlarga tushuncha berib o'tdi. Mazkur sohani rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan Farmonlarda belgilangan imtiyoz va imkoniyatlar, xotin-qizlar faollari tomonidan oilalar va xotin-qizlar o'rtasida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni olib borish, ommaviy sport tadbirlarini o'tkazish, jamoatchilik tuzilmalari ishini samarali tashkil etish, xotin-qizlar bilan bog'liq hamda oilalarda ijtimoiy-ma'naviy muhitga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi holatlar, ularni oldini olish borasida mutasaddi tashkilotlarning o'zaro hamkorligini hamda davlat organlari tomonidan xotin-qizlarning murojaatlari bilan ishlash tizimini takomillashtirish, xotin-qizlar faollarining ish faoliyatidagi uchrayotgan muammo va takliflarini eshitish hamda ko'tarilgan masalalarni hal etish bo'yicha kerakli tavsiyalar berildi.

Farg'ona shahrida ham yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, ayollarni reabilitatsiya qilish, xotin-qizlar tadbirkorlik markazlari tashkil etilganligi aytib o'tildi. Shundan so'ng, Respublika Oila va xotin-qizlar qo'mitasi boshqarma boshlig'i Dilshoda Mirzajonova Muhtaram Prezidentimizning joriy yil 7 martdagi "Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-87-son Farmonida xotin-qizlarning huquqiy bilimlarini oshirish, xotin-qizlar o'rtasida ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni rivojlantirish, sog'lom turmush tarzini shakllantirish bo'yicha muayyan tadbirlar belgilanganligi, muddatlari va mas'ullar aniq ko'rsatilganligiga alohida e'tibor qaratdi.

Shuningdek, mahallalar va oilalarning ijtimoiy-ma'naviy muhitiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan holatlar(oilaviy ajralishlar, jinoyatchilik, erta nikoh, noqonuniy nikohlar)ning oldini olish jamiyatimiz oldida turgan dolzarb masalalardan biri bo'lib kelayotganligi, bugungi kunda ro'y berayotgan muhim ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy o'zgarishlar aholi ongiga turlicha ta'sir qilayotganligini misollar bilan ta'kidlab o'tildi.

Shu o'rinda xotin-qizlar o'rtasida ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tizimli tashkil etish, ularning ta'sirchanligini oshirish muhim ahamiyatga ega ekanligi, salbiy holatlarning ma'naviy bo'shliqlardan kelib chiqishini, bunday holatlarning oldini olishning birdan-bir yo'li – bu, albatta, ma'naviy-ma'rifiy ta'sir choralari ekanligi bo'yicha ishtirokchilarga tushunchalar berildi.

Ochiq muloqot davomida ishtirokchilar tomonidan berilgan savollarga mutaxassislar javob berishdi. Kelgusida amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalar yuzasidan mas'ullarga topshiriqlar berildi.

2022-07-04 11:31:59